


103. Bir necha marta orttirish

Yondosh mavzu:
oila.

... marta katta,
... marta orttirish.



4 ta cho'pning
o'rnnini shunday
almashtiringki,
natijada 5 ta
uchburchak
hosil bo'lsin.



1. Behruz vazadan 2 ta yong'oq, uning ukasi Shohruz esa
2 tadan 2 marta yong'oq oldi. Shohruz nechta yong'oq olgan?




2. Sonni n marta ottirish – bu sonni n marta olish.
a) 7, 9, 11 sonlarini 2 marta orttiring.
b) 4, 7, 8 sonlarini 3 matra orttiring.
d) 2 va 5 sonlarini 6 marta orttiring.



Sonni bir necha marta orttirish

**Sonni n marta orttirish uchun bu sonni n ga
ko'paytirish kerak.**

4 soni 3 marta orttirildi.
 $4 \cdot 3$ qiymat 4 dan 3 marta ortiq.




3. Rasmlardagi xatolarni topping:

a) Chap tokchada o'ng
tokchadagidan 3 marta
ko'p kitob bor.



b) Pastdag'i ipda yuqoridagi
ipdagidan 2 marta ko'p
munchoq bor.






4. Salimning tug'ilgan kunida 8 ta mehmon, bobosining yubileyida esa 3 marta ko'p mehmon keldi. Bobosining yubileyida qancha mehmon kelgan?



5. Kesmaning uzunligini o'lchang. Uning uzunligini 4 marta orttiring va yangi kesmani daftaringizga chizing. Kesma ostiga uning uzunligini yozing.



6. Hisoblang va ortiqcha so'zni toping:

$$\text{P} \quad 95 + (6 \cdot 3)$$

$$\text{A} \quad (70 - 52) : 9$$

$$\text{N} \quad 120 - (6 \cdot 5)$$

$$\text{L} \quad (7 \cdot 3) + (3 \cdot 2)$$

$$\text{I} \quad (60 - 36) : 3$$

$$\text{G} \quad 109 + (5 \cdot 8)$$

$$\text{O}' \quad (3 \cdot 5) + (5 \cdot 5)$$

$$\text{S} \quad (14 + 31) : 9$$

$$\text{K} \quad 178 - (7 \cdot 4)$$

$$\text{X} \quad (13 + 19) : 8$$

$$\text{O} \quad 111 - (7 \cdot 2)$$

$$\text{T} \quad (4 \cdot 9) - (5 \cdot 4)$$

2, 150, 2

97, 113, 2

5, 8, 90, 149, 8, 27

4, 97, 27, 2

16, 97, 40, 2

Qavslar ichidagi amallar birinchi navbatda bajariladi.



7. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari uzunliklari 3 cm va 1 cm. Uning katta tomoni 2 marta, kichik tomoni esa 6 marta orttirildi. To'g'ri to'rtburchak qanday shaklga aylanib qoldi? Bu shaklning tomonlari qanday uzunlikka ega bo'ldi? Bu shaklni daftaringizga chizing.



8. a) 7 sonini 2 marta; 6 marta; 9 marta orttiring.
 b) 7, 9, 10 sonlarini 5 marta orttiring.
 d) 5 sonini 6 marta, 6 sonini esa 5 marta orttiring.
 Natijalardan qaysi biri katta?



9. Nonushtadan keyin dasturxonidan 6 ta piola va 2 marta ko'p likopcha yig'ib olindi. Hammasi bo'lib nechta idish yig'ib olingan?